

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY



ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o‘rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To‘lqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay‘atining xalqaro a‘zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog‘iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė - iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay‘ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug‘bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G‘ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyeu Nurali - i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich - i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o‘g‘li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich - q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich - q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich - v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich - b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich - q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyeovich - q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o‘g‘li - q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma‘ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo‘ldoshbek Akmal o‘g‘li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA‘LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma‘lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo‘jaligi
fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

Elektron nashr, 581 sahifa.
E‘lon qilishga 2025-yil
31-oktabrda ruxsat etildi.





**“AGROBIZNES, FAN VA
TEXNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI**

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

Xalimov Javlonbek Shaxriyovich

Logistika va yetkazib berish xizmatlarini rivojlantirish borasidagi tizimli yondashuv uslubiyoti.....11

Nabiyev G‘ulom Abdisalomovich

Mintaqa iqtisodiyotida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda va barqaror iqtisodiyotdagi roli.....21

Razzakov Durbek Xoshimovich

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....31

Yusupov Farxod Adamboyevich

Ishchi kuchidan foydalanish jarayonlarini statistik usullar orqali tahlil qilishning xorij tajribasi.....39

Xolmatova Dilafruxxon Maxsudjon qizi

Aholini turmush farovonligini oshirishda kambag‘allikni kamaytirishni o‘ziga xos xususiyatlari.....51

Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna

Tijorat banklari faoliyati moliyaviy natijadorligining nazariy asoslari.....56

Abdusattorov Abdusamat Sobirovich

Temir yo‘l transportining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun raqamli transformatsiya.....66

Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li

Kichik biznes sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar.....74

Sadikov Zafarbek Adilbekovich

Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.....81

Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li

Ichki audit samaradorligini baholash mezonlari va buxgalteriya ma’lumotlarining ichki audit jarayonidagi ahamiyati.....88

Maribjonov Botirjon Ikromjonovich

Nodavlat oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish.....97

Fozil Xolmurotov

Xorazm viloyatida savdo va mintaqaviy o‘rta dinamikasini tahlil qilish.....105

Topildiyev Soxibjon Raximjonovich

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishi va muqobil energiyadan foydalanishni joriy etish mexanizmlari.....118

Ruziyeva Umida Muzaffarovna

Tibbiyot muassasalari hisob siyosatida xarajatlar va daromadlar hisobini aks ettirish.....130

Raxmonqulova Nafis Olimjon qizi

Buxoro viloyatidagi to‘qimachilik korxonalarida resurs tejamkorlikning strategik yo‘nalishlari.....143

Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li

Tijorat banklarida investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning takomillashgan metodologiyasi: risk va barqarorlik omillari tahlili.....151

Юлдашев Фозилбек Бахтиярович

Управление бизнес на основе цифровых технологий.....158

Axmedova Nafisa Amirddin qizi

Iqtisodiy tebranishlarning go‘sh narxiga ta‘siri.....168

Tleubergenov Raxat Sharibaevich

Qishloq xo‘jaligida sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi.....175

Ашурметова Нигора Азатбековна, Каримова Мафтуна Нурдиновна

Приоритеты и принципы перехода к зелёной экономике в условиях устойчивого развития.....182

Qudiratorov Erali Sherali o‘g‘li

Yaylov yerlaridan samarali foydalanish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasi va ularning ilg‘or yutuqlarini respublikamizda qo‘llash imkoniyatlari.....200

Raximova Lolaxon Avazovna

Mintaqa iqtisodiy salohiyatini oshirish aholi turmush darajasini yaxshilash omili sifatida.....211

Yusupdjanova Nargiza Utirovna, Karimov Inomjon Ortikbayevich

Investitsiya siyosatining barqarorligini ta‘minlashda institutsional asoslarning holati.....220

Ибадуллаев Эргаш Бактурдиевич

Агроэкспортная диверсификация в Хорезме: за пределами хлопка и фруктов.....232

Naimova Nargiza Akbarovna

Startaplar va innovatsion loyihalarni xalqaro miqyosda boshqarish mexanizmlari.....241

Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna

Baholash faoliyatini tartibga solishning xalqaro tajribasining o'rnini.....250

Samandarov Og'abek Alisher o'g'li

To'liqlik tahlil yordamida iqtisodiy o'sish va energiya xavfi o'rtasidagi dinamik korrelyatsiyani aniqlash.....259

Bazarova Mamlakat Supiyevna

Sanoat sektori korxonalarida marketing tizimini boshqarish modeli.....265

Bustonov Komiljon Kumakovich, G'aniev Baydulla Toshmurodovich

Kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarni jalb qilish mexanizmini shakllantirish.....271

Jumanazarov Diyor Ibrohim o'g'li

Mintaqa iqtisodiy tarmoqlarini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida).....281

Toshbekova Shaxnoza Erkinovna

Davlat moliyaviy nazoratini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari.....285

Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi

Transport xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.....291

G'aniyev Baydulla Toshmurodovich

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlikning barqaror rivojlanish omillari.....298

Allayarov SHERALI Shamshiyevich, Musirmanov Nurali Fayzullayevich, Donayev Xusniddin Abdalimovich

Belarus Respublikasi qoramolchiligida naslchilik ishlarini boshqarish tizimi va naslchilik ishini samarali tashkil etish tajribalari.....303

Yusupova Gulasal Axmedjanova

Buxgalteriyada kalkulyatsiya va tannarxni hisoblash masalalari.....310

Sarvar Mamasoliyev

O‘zbekistonda smart suv menejmentidan foydalanish istiqbollari.....316

Alisher Xudoynazarovich Shadiyev

Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish.....329

Jumayeva Zamira Bustonovna

Buxoro viloyati iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor hamkorligining samaradorligini oshirish mexanizmlari.....335

Boltayev Nurali Shiramatovich, Miraxmedova Kamola Fozil qizi

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda Xitoy tajribasini qo‘llash imkoniyatlari.....342

Miraxmedov Jasur Isroilovich

Banklar faoliyati samaradorligiga vositachilik xizmatlarining ta’sirini statistik tadqiq qilish.....350

Alisher Kurambayev

Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish xizmatini samarali tashkil etish omillari...359

Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes sohasidagi iqtisodiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari.....366

Djurayev Olimjon Narkulovich, Sulaymonov Sulaymonjon Odil o‘g‘li

Mintaqa iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilish usullari.....372

Abdullayeva Shaxnoza Esonovna

Kichik biznesda innovatsion salohiyatni boshqarishning mavjud mexanizmlari.....380

To‘qsonov Xurshid, Raimov Yodgor

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazorati nazariy konsepsiyasi.....388

Javliyev Nuriddin Bektemir o‘g‘li

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allik dinamikasi.....398

Quliyev Anvar Zayniddinovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit mablag‘larini jalb qilishning ilmiy nazariyalari.....405

Nabiyev Olimjon Abdisalomovich

Xizmatlar sohasida beqaror ish bilan bandlik masalalari.....412

Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li

Monetar siyosatning istiqbolli instrumenti sifatida murobahaning dolzarbligi.....420

Динара Ташевна Гафарова

Роль частного сектора в устойчивом росте экономики Узбекистана.....431

Hojiqulova Feruza Dona qizi

Korxona investitsiya loyihasining samaradorligini npv, irr va pi ko‘rsatkichlari asosida baholash.....438

Safarov Asqarbek Asadullayevich, Kasimov Botir Sadriddinovich, Normurodov Sarvar Norboy o‘g‘li

Sifat menejmenti tizimini uy-joy fondida joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlari (xorijiy tajribalar asosida).....443

Radjabova Malika

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratni boshqarish tizimini tashkil etish asoslari.....452

Jaksimova Zuxra Rustem qizi

Sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish.....459

QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

Mansurov Xusniddin Gabtrashitovich, Kayumov Norboy Shakirjonovich

No‘xatda F2 duragay kombinatsiyalarida 1000 dona urug‘ vazni belgisining o‘zgaruvchanlik ko‘lami.....464

Tadjiev Mardanoqul, Alimardanov Olim To‘ylievich, Islamov Ilhom Turdievich

Kolleksiya namunalarining biotik va abiotik omillarga bardoshliligi va qimmatli xo‘jalik belgilari.....470

Raxmonov Akbar

Turli hududlarda ipak qurti zot va duragaylarining pilla mahsuldorligiga ekologik omillar ta’siri.....476

Ochildiyev Najmiddin Narbayevich, Choriyeva Yulduz Panjiyevna, Xusanov Farxod Xurramovich

Yangi ingichka tolali “Itpiti-1” va “Itpiti-2” g‘o‘za navlarida dala sharoitida o‘tkazilgan navdorlik ishlari natijalari.....486

To‘raqulov Umid Xayitovich, Mansurov Xusniddin Gabtrashitovich, Kayumov Norboy Shakirjonovich

Yuqori hosildorlik va maxsuldorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan no‘xat nav va tizmalar ko‘chatzori.....496

Tadjiev Mardanoqul, Tadjiev Karim Mardanakulovich, Xudoynazarov Abdurashid Ochildievich, Raximov Rustam Omonturdievich

Ingichka tolali g‘o‘zaning uzun tolali va yirik chanoqli yangi navlarini yaratishda yangi donorlarning ahamiyati.....501

Маматожиёв Шарип Икромович

Технология допосевной обработки почвы на содержание влаги в почве.....506

Yoqubov Shuhrat Quvandiqovich

Ekish me‘yorlari va biopreparatlarning *Crotalaria Juncea* o‘simligini ildizidagi tuganak bakteriyalar hosil bo‘lishiga ta’siri.....512

O‘razmetov Qahramon Karimboyevich

Sholi navlarining ko‘chat qalinligi va tuplanish darajasiga mikroelementlarning ta’siri.....517

Sayfullayeva Nazokat Qobuljonovna

Kartoshka tugunaklarini mahalliy usullarda saqlashning fiziologik jarayonlarga ta’sirini tadqiq qilish.....524

Kayumov Norboy Shakirjonovich, Ataboyev Marufjon Rasulovich, To‘raqulov Umid Xayitovich

Don sifati va yuqori hosildorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan no‘xat nav va tizmalarning sug‘orilmaydigan maydonlardagi ahamiyati.....529

Shamuratova Gulnaz Muratbayevna

Orolbo‘yi tuproqlarining fermentativ faolligi tarqalishining yil mavsumlari hamda sho‘rlanish darajalariga ko‘ra o‘zgarishi.....534

Allayarov Sherali Shamshiyevich, Mamatqulov Olimjon Eshonqulovich, Donayev Xusniddin Abdialimovich

O‘zbekiston sharoitida parvarishlangan Bushuev va xorijiy zotli nasldor-spermodonor buqalar sperma mahsulotining harakatchanlik ko‘rsatkichlari.....539

Sayfullayeva Nazokat Qobuljonovna

Dukkakli ekinlarni tuproq unumdorligini oshirishdagi o‘rni.....546

Namozov Ixtiyor Chorievich, Jumamuratova Juldiz Tlekles qizi

Intensiv tipdagi nok bog‘larining hosildorligi.....551



Маматожиев Шариф Икромович

Использование малораспространенных овощных культур в как ландшафтных растений.....555

Mamatqulova Sevara Umar qizi, Naxalbayev Jaxangir Tursunbayevich, Mavlanov Javohir Sarvar o‘g‘li

Lalmikor maydonlarda xashaki va xo‘raki ko‘k no‘xatning ertapishar va qimmatli xo‘jalik belgilarga ega navlarini tanlash.....560

Маматожиев Шарип Икромович

Агрофизические свойства почвы в зависимости от технологии до посевной обработки.....567

Utambetov Orakbay Polatovich, Nurimbetova Aysulu G‘aybulla qizi

Jo‘xorida rivojlanish fazalari bo‘yicha barg sathining shakllanishiga ekish muddatlari va tizimlarining ta’siri574



KORXONA INVESTITSIYA LOYIHASINING SAMARADORLIGINI NPV, IRR VA PI KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH

HOJIQULOVA FERUZA DONA QIZI

Renessans ta'lim universiteti

“Moliya va kredit” kafedrası v.v.b. dotsenti

E-mail: hojiqulovaferuza@gmail.com

ORCID: 0009-0000-0120-4011

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxona investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini baholashda keng qo'llaniladigan sof joriy qiymat (NPV), ichki daromad normasi (IRR) hamda foydalilik indeksi (PI) ko'rsatkichlarining nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiya qarorlarini qabul qilishda diskontlash usullarining o'rni, kapitalning vaqt qiymati, risk va daromadlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada korxona miqyosida investitsiya loyihasining pul oqimlari modeli asosida NPV, IRR va PI ko'rsatkichlarini hisoblash, ularning o'zaro solishtirma tahlili orqali eng maqbul loyihani tanlashning ilmiy-metodik yondashuvlari taklif etilgan. Natijalar iqtisodiy samaradorlikni baholashda xalqaro standartlarga mos metodologiyani ishlab chiqish zaruratini asoslaydi va bank-moliya institutlari uchun qaror qabul qilish jarayonlarida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihasi, NPV, IRR, PI, iqtisodiy samaradorlik, diskontlash, risk tahlili, kapitalning vaqt qiymati.

Аннотация. В статье проводится углублённый анализ теоретических и практических аспектов оценки эффективности инвестиционных проектов предприятия на основе показателей чистой приведённой стоимости (NPV), внутренней нормы доходности (IRR) и индекса прибыльности (PI). Рассматриваются методологические основы дисконтирования, значение временной стоимости капитала, взаимосвязь риска и доходности при принятии инвестиционных решений. Особое внимание уделено построению модели денежных потоков предприятия и сравнительной интерпретации показателей NPV, IRR и PI с целью выбора оптимального инвестиционного проекта. Полученные результаты обосновывают необходимость внедрения международных методик оценки эффективности инвестиций в корпоративную практику и расширяют возможности их применения в банковско-финансовой сфере.

Ключевые слова: инвестиционный проект, NPV, IRR, PI, экономическая эффективность, дисконтирование, анализ риска, стоимость капитала.

Abstract. This paper provides an in depth analysis of both the theoretical foundations and practical applications of evaluating enterprise investment project efficiency using Net Present Value (NPV), Internal Rate of Return (IRR), and Profitability Index (PI) indicators. The study emphasizes the role of discounting techniques, the time value

of capital, and the relationship between risk and profitability in investment decision-making. Furthermore, the article develops a corporate-level cash flow model for calculating NPV, IRR, and PI, and proposes a comparative analytical framework for selecting the most efficient investment alternative. The research findings substantiate the importance of adopting internationally recognized methodologies for assessing investment effectiveness and broaden the potential for their application in banking and financial institutions' decision-making processes.

Keywords: investment project, NPV, IRR, PI, economic efficiency, discounting, risk analysis, time value of money.

KIRISH

Korxonalarda investitsiya loyihalarini rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida samaradorlikni aniq baholash, ularning muvaffaqiyatini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Global iqtisodiy sharoitlar va bozor raqobati keskinlashgan bugungi kunda, har bir investitsiya qarori nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik aspektlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Shu sababli, investitsiya samaradorligini baholashda yuqori darajadagi aniq metodlar va ko'rsatkichlarga ehtiyoj bor.

NPV, IRR va PI kabi ko'rsatkichlar, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda keng qo'llaniladigan vositalardir. NPV loyihadan kutilgan naqd pul oqimlarini hozirgi qiymatga keltirib, investitsiyaning umumiy rentabelligini aniqlashga yordam beradi. IRR esa, loyiha rentabellik darajasini o'lchab, uning qabul qilinishi uchun minimal daromad stavkasini belgilaydi. PI ko'rsatkichi esa, investitsiyaning foydaliligini va rentabellikni taqqoslashda yordam beradi, bu ko'rsatkichlar, odatda, moliyaviy tahlil jarayonida birgalikda ishlatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarda ushbu ko'rsatkichlar asosida investitsiya baholash metodlarining samaradorligi keng muhokama qilingan. Shumaker investitsiya baholash metodlarining har biri, korxonalarga qaror qabul qilishda yuqori ishonchlikni ta'minlashini ta'kidlaydi[1]. U NPV metodini, investitsiya loyihalarining haqiqiy iqtisodiy foydasini ko'rsatishdagi eng ishonchli usul sifatida tavsiflaydi. Shuningdek, Bodie, Kane va Marcus IRR ko'rsatkichini loyihalar rentabelligini aniqlashda samarali vosita deb hisoblaydilar[2], ammo ularning fikriga ko'ra, IRR ba'zan ikki yoki undan ortiq yechimlar bilan natijalarga olib kelishi mumkin, bu esa uning kamchiliklaridan biridir. PI ko'rsatkichi, kompaniyalar uchun investitsiya loyihalarini taqqoslashda, ayniqsa, kapital cheklangan sharoitlarda qo'llanilishi tavsiya etiladi[3].

Shu bilan birga, investitsiya samaradorligini baholashda risklarni boshqarish zarurati haqida bir nechta tadqiqotlar mavjud. Kaplan va Norton[4] kompaniyalar uchun muvaffaqiyatli investitsiya strategiyalarini amalga oshirishda risklarni diversifikatsiya qilishning muhimligini ta'kidlaydilar. Risklarni samarali boshqarish, investitsiyalarning ijobiy natijalarini ta'minlashda muhim omil bo'lib, bu metodlar ko'pincha NPV va IRR bilan birgalikda ishlatiladi.

Maqolaning maqsadi - NPV, IRR va PI ko'rsatkichlarining investitsiya baholashda qanday ishlatilishini, ular yordamida risklarni qanday boshqarish mumkinligini tahlil qilish va ularning amaliy qo'llanilishi haqida ilmiy tavsiyalar berishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Surxondaryo viloyatidagi Termiz invest MChJga jalb etilgan investitsiyalar va ularning iqtisodiy ta'sirini ushbu usulda tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1-jadval

Surxondaryo viloyatidagi Termiz invest MChJga jalb etilgan investitsiyalar

Yillar	Pul oqimi (mln.so'm)
2021	130
2022	240
2023	250
2024	360

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, pul oqimlari yillik o'sish sur'atini ko'rsatadi. 2021-2022 yillarda o'sish 110 million so'mni (85%) tashkil etgan bo'lsa, 2022-2023 yillarda o'sish nisbatan past (4.17%) bo'lgan, ammo 2023-2024 yillarda 110 million so'm (44%) bo'lgan sezilarli o'sish kuzatilgan. Bu o'sish, kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojni bildiradi. Dastlab ushbu korxona 500 mln so'm investitsiya kiritish bilan faoliyatini boshlagan va diskont stavkasi miqdori 10 foizni tashkil etgan. Ushbu holatdan kelib chiqib korxonaning investitsiya harakatini investitsiya samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalanib bajaradigan bo'lsak, quyidagi natijaviy holatni ifodalaydi.

Investitsiyaning samaradorligini baholashda eng asosiy ko'rsatkichlardan biri bu NPV bo'lib, u pul oqimlarining hozirgi qiymatining boshlang'ich investitsiya bilan taqqoslashni ko'rsatadi. NPV musbat bo'lsa, loyiha iqtisodiy jihatdan foydali ekanligini bildiradi.

Diskont stavkasi (r) 10% bo'lgan holda, 500 million so'mlik dastlabki investitsiya asosida har bir yildagi pul oqimlari diskontlangan qiymatini hisoblashimiz kerak. Quyidagi hisob-kitoblar yordamida NPV ni topish mumkin:

$$NPV = \sum \left(\frac{CF_t}{(1+r)^t} \right) - I_0$$

$$1\text{-yil (2021)} = \frac{130}{(1+0.1)^1} = 118.18 \text{ mln so'm;}$$

$$2\text{-yil (2022)} = \frac{240}{(1+0.1)^2} = 198.35 \text{ mln so'm;}$$

$$3\text{-yil (2023)} = \frac{250}{(1+0.1)^3} = 187.64 \text{ mln so'm;}$$

$$4\text{-yil (2024)} = \frac{360}{(1+0.1)^4} = 246.69 \text{ mln so'm;}$$

Shundan so‘ng, diskontlangan pul oqimlarini yig‘ib, NPV ni hisoblaymiz:

$NPV = 118.18 + 198.35 + 187.64 + 246.69 - 500 = 250.86$ million so‘m. Natija NPV = 250.86 million so‘mni tashkil etdi. Bu loyiha iqtisodiy jihatdan foydali ekanligini ko‘rsatadi.

IRR ko‘rsatkichi hisoblashda ushbu ko‘rsatkich iqtisodiy mohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, investitsiyaning rentabellik darajasini ko‘rsatadi va NPV ni 0 ga tenglashtiruvchi diskont stavkasidir. IRR ning yuqori bo‘lishi loyihaning yuqori rentabelligini anglatadi. Ushbu loyiha uchun $IRR \approx 28.23\%$ ga teng bo‘lib, bu loyiha yuqori rentabellikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

PI ko‘rsatkichi esa, investitsiyaning foydalilik darajasini ko‘rsatadi va agar PI 1 dan katta bo‘lsa, loyiha foydali hisoblanadi. PI hisoblash uchun diskontlangan pul oqimlarini jami qilib, boshlang‘ich investitsiyaga bo‘lish zarur:

$$PI = \frac{\sum \left(\frac{CF_t}{(1+r)^t} \right)}{I}$$

$$PI = \frac{750.86}{500} = 1.50$$

Natija PI = 1.50 qiymatni hosil qildi. Bu, loyiha foydali va sarmoya kiritishga arziydigan darajada ekanligini ko‘rsatadi. Korxona tomonidan kiritilayotgan 1 so‘m investitsiya 1.5 so‘m qiymat yaratishini ifodalaydi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tahlil qilingan ko‘rsatkichlar, Termiz Invest MChJning 2021-2024 yillardagi investitsiya loyihasining yuqori rentabellikka ega ekanligini ko‘rsatadi. NPV ning musbat qiymati (250.86 million so‘m), IRR ning yuqori darajasi (28.23%) va PI ning 1.50 ga tengligi, loyiha iqtisodiy jihatdan foydali ekanligini va korxonaning investitsiya faoliyati muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, pul oqimlarining yilma-yil o‘sishi, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojini aks ettiradi, bu esa korxonaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Korxonaning barcha operatsiyalarini raqamli platformaga integratsiya qilish orqali biznesni raqamlashtirish zarur. Innovatsion texnologiyalarni, masalan, sun‘iy intellekt, blokcheyn va IoT (Internet of Things)ni qo‘llash orqali, korxona samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Raqamli platforma orqali mahsulot va xizmatlar tahlil qilinadi, shuningdek, mijozlar bilan muloqotni shaffof va samarali qilish mumkin. Bu taklif, biznesning barcha jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va tezkor qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Korxonaniyaning rivojlanishini barqaror biznes modellariga asoslash zarur. “Yashil investitsiyalar” deb ataladigan, ekologik jihatdan mas‘uliyatli loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi hamkorliklarni rivojlantirish muhim. Masalan, qayta tiklanadigan energiya resurslariga (quyosh, shamol) investitsiya qilish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini yaratish korxonaning ijtimoiy imidjini mustahkamlash va barqaror rentabellikni ta‘minlashga yordam beradi.

Korxona uchun global miqyosdagi strategik hamkorliklarni rivojlantirish, yangi bozorlar va texnologiyalarni olish imkonini beradi. Konsorsiumlar orqali katta hajmdagi investitsiyalarni amalga oshirish va katta loyihalarni amalga oshirish uchun



yirik xalqaro hamkorlar bilan kelishuvlarga erishish zarur. Bu, nafaqat yangi bozorlarga kirish, balki texnologik va ilmiy taraqqiyotda ilgʻor pozitsiyani egallash imkoniyatini ham beradi. Shuningdek, jamgʻarmalar va xalqaro grantlar orqali qoʻshimcha moliyaviy resurslar jalb qilish mumkin.

XULOSA

Bu takliflar korxonaning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish, ekologik barqarorlikni taʼminlash va raqamli texnologiyalarni qoʻllash orqali biznesni yanada ilgʻor qilishga xizmat qiladi. Bular innovatsion va zamonaviy yechimlar boʻlib, kompaniyaning muvaffaqiyatini uzoq muddat davomida taʼminlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Bodie, Z., Kane, A., & Marcus, A. J. (2014). Investments. McGraw-Hill.
2. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1992). The Balanced Scorecard: Measures that Drive Performance. Harvard Business Review.
3. McDonald, R. L. (2016). Project Finance and Investment: A Risk Management Approach. Wiley.
4. Shumaker, R. (2009). Financial Analysis and Decision Making. *Pearson Education*.
5. Xatamov N.O. Mintaqa iqtisodiy tizimini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik modellari (Surxondaryo viloyati misolida)/ iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori dissertatsiya– Urganch, 2024. – 136 b.
6. Turayev B. E. Surxondaryo viloyati qurilish materiallari sanoati rivojlanish tendensiyalari barqarorligini baholash/UZA.2023 yil. Mart. №03(41).

